

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktabr holatiga 33085,2 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 428,5 ming kishiga yoki 1,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 16728,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 %), qishloq aholisi soni 16357,0 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **428,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **553,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- **112,6 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **196,0 mingta nikoh** va **23,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (1 oktabr holatiga, ming kishi)

	2017 yil	2018 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'ish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	32 512,4	33 085,2	101,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 834,6	1 861,2	101,4
<i>viloyatlar</i>			
Andijon	2 998,6	3 050,5	101,7
Buxoro	1 862,9	1 891,1	101,5
Jizzax	1 319,3	1 344,9	101,9
Qashqadaryo	3 131,8	3 195,2	102,0
Navoiy	954,4	969,7	101,6
Namangan	2 687,0	2 737,7	101,9
Samarqand	3 701,3	3 777,8	102,1
Surxondaryo	2 500,6	2 554,4	102,2
Sirdaryo	812,6	825,8	101,6
Toshkent	2 853,0	2 888,2	101,2
Farg'ona	3 605,8	3 665,6	101,7
Xorazm	1 795,9	1 825,2	101,6
Toshkent sh.	2 454,6	2 497,9	101,8

*dastlabki ma'lumot

Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida 3777,8 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 %ni) va Farg'ona viloyatida 3665,6 ming kishini (11,1 %), aksincha eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida 825,8 ming kishini (2,5 %) va Navoiy viloyatida 969,7 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Surxondaryo viloyatida 2,2 %ni, Samarqand viloyatida 2,1 %ni, Qashqadaryo viloyatida 2,0 %ni, Jizzax va Namangan viloyatlarida 1,9 %ni va Toshkent shahrida 1,8%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Toshkent viloyatida 1,2 %ni va Qoraqalpog'iston Respublikasida 1,4%ni tashkil etdi.

Demografik holat

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 553,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,5 promilleni tashkil etdi hamda 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 21,7 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:
289,3
ming nafar



Qiz bolalar:
264,1
ming nafar



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 112,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,8 promille bo'lgan).


Erkaklar:
61,1
ming kishi



Ayollar:
51,5
ming kishi



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-sentabr)




Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,7 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,5 %i - o'simtalardan, 6,3 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,1 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,4 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 5,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 60,8 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,6 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,7 %i - tug'ma anomaliyalardan, 2,2 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,2 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,8 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,7 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)



2018 yil yanvar-sentabr

Demografik holat

Hududlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 440,8 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 34,0 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 406,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Tabiiy o'sish:
440,8 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 196,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (10,9 %), Jizzax (9,5 %), Andijon (7,2%), Farg'ona (7,4 %) va Toshkent (6,7 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 23,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Andijon (21,2 %), Toshkent shahriga (18,2 %), Surxondaryo (9,5%) va Toshkent (5,3 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Xorazm (29,8 %) va Qashqadaryo (20,9 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Demografik holat

Poytaxtdagi demografik holat. O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktabr holatiga 2497,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 33,0 ming kishiga yoki 1,3 %ga o'sgan.

Toshkent shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)

2017 yil yanvar-sentabr 2018 yil yanvar-sentabr



2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 34,0 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 18,3 promilleni tashkil etdi va 2017 yilga nisbatan 0,7 ga (2017 yilning mos davrida - 17,6 promille bo'lgan) o'sdi.


2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 11,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 461 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 6,4 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 ga kamaydi (2017 yilning mos davrida - 6,7 promille bo'lgan).

Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 22,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 2,2 ming kishiga o'sishi (2017 yilning mos davrida 19,9 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 14,4 mingta nikoh va 3,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,7 promilleni tashkil qilib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 ga o'sdi (2017 yilning mos davrida - 7,5 promille bo'lgan).

Toshkent shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (1000 aholiga nisbatan, yanvar-sentabr holatiga, promille)



Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,7 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega (2017 yilning mos davrida 1,5 promille bo'lgan) o'sgan.

Demografik holat


Migratsiya. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 121,7 ming kishini (119,8 ming kishi respublika hududlaridan, 1,9 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 134,0 ming kishini (119,8 ming kishi respublika hududlariga, 14,2 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 12,3 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 14,9 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-sentabr	2018 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	120,6	121,7
Ko'chib ketganlar	135,5	134,0
Migratsiya saldosini	-14,9	-12,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Toshkent viloyatida (minus 4,1 ming kishi), Qashqadaryo viloyatida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 3,1 ming kishi) qayd etildi.


O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida, jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni **1961 kishi**



O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)




Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni **14195 kishi**



Hududlar kesimida aholining zichligi

(2018 yil 1 oktabr holatiga, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)

dastlabki ma'lumot



Respublika aholisining zichligi 2018 yil 1 oktabr holatiga 1 kv.kmga 73,7 kishiga to'g'ri keldi.